



O‘ZBEKISTONDA XORIJIY DAVLATLAR BILAN HAMKORLIKDA TEZ TIBBIY YORDAM XIZMATINI TASHKIL ETISH FAOLIYATI

Xoliqov G‘olib Jahongirovich

Qarshi axborot texnologiyalar va menejmenti
universiteti dotsenti

Samadova Shahzoda Uktamovna

Qarshi axboot texnologiyalar va menejmenti
universiteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonning tez tibbiy yordam xizmatining tashkil etilishida xorijiy davlatlar va yirik tashkilotlar bilan hamkorligi jihatlari, shuningdek shoshilinch tibbiy yordamni rivojlantirish chora-tadbirlari va bugungi kunda sog‘liqni saqlash sohasi vakillariga yaratilayotgan imkoniyatlari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, tibbiyot, poliklinika, tibbiy yordam, texnologiya, zamonaviy, dispatcher, shoshilinch tibbiy yordam, xalqaro, aloqa, avtotransport

O‘zbekistonda mustaqillik yillarida sog‘liqni saqlash sohasida jiddiy islohotlar amalga oshirilib, muayyan natijalar qo‘lga kiritildi. Bu borada ayniqsa nufuzli xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlik muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Xususan, ixtisoslashgan tibbiy xizmatni yo‘lga qo‘yish, onalik va bolalikni muhofaza qilish, aholini dori vositalari bilan ta‘minlash, tibbiy kadrlar tayyorlash va tibbiyot fanini rivojlantirish borasidagi xalqaro aloqalar qizg‘in borildi.

Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Prezident Shavkat Mirziyoyevning quyidagi so‘zlarini keltirish lozim: “Aholi salomatligini muhofaza qilishni yanada yaxshilash,



xalqimizni tibbiyot tizimi faoliyatidan rozi qilish-barchamizning eng muhim vazifamizdir”¹. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida¹ aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, soha moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish kabi masalalarga ahamiyat qaratilgan. Zamonaviy tibbiyotni yo‘lga qo‘yish va jahonning ilg‘or tajribasidan foydalanish soha tarixini yangi metodologik yondashuvlar va birlamchi manbalarga asoslanib yoritishni talab etadi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekistonda Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan tibbiy xizmat ko‘rsatish tizimining ushbu sohasida ham rivojlanishning intensiv usullarini joriy etish tadbirlari amalga oshirildi. Jumladan, poliklinikalar huzurida tashkil etilgan «shoshilinch tez yordam» xizmati shular jumlasidandir. Ushbu tarmoqning mustahkamlanishi natijasida ambulatoriya - poliklinikalar huzuridagi tez tibbiy yordam vrachlar brigadasining soni 1994 yildagi 606 tadan 1996 yilda 622 taga o‘sd². Shu bilan birga, tez tibbiy yordam bo‘limlari soni 1991 yilda 216 ta bo‘lgan bo‘lsa, 1995 yilda bu ko‘rsatkich 221 tani tashkil qildi³.

1991 – 1998 yillarni sog‘liqni saqlash tizimini qayta tuzishning boshlanish davri deb ta’riflash mumkin⁴. Bu davrda soha huquqiy bazasini mustahkamlash tadbirlari olib borildi. 1998 yilning 10 noyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish Davlat dasturi” haqidagi Farmoni⁵ esa bu boradagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqdi hamda ushbu tizimning zamonaviy asosda yangilanishida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Jumladan, mazkur Farmon yuzasidan

¹Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг тиббиёт соҳасидаги долзарб масалалар муҳокамасига бағишланган йиғилишдаги нутқи /| Халқ сўзи.2017 йил 13 декабрь.

²Ўз ИТТХ МАМ-372-Фонд, 1-рўйхат (давоми), 407-йиғма жилд, 25-варак.

³ Ўзбекистон Республикаси давлат статистика қўмитаси ҳисоботи (1995 йил)

⁴ Миразимов Д.Б., Ўзбекистон соғлиқни сақлаш тизимини ислоҳ қилиш: асосий йўналишлар ва босқичлар/ Sog‘liqni saqlashni tashkil etish va boshqarish. 2010 й., 3-4 сон .–Б.21.

⁵ Шошилиш тиббий ёрдам истиқболи/ Sihat – salomatlik. 1999 й. 3 – сон. –Б.3.



Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi (RSHTYOIM) va uning viloyatlardagi bo'linmalarini tashkil qilindi⁶. 2001 yilga kelib RSHTYOIM va uning viloyatlardagi filiallari to'la quvvat bilan faoliyat ko'rsatdi⁷.

2000 yili Respublikada shoshilinch tibbiy yordamni tashkil qilish Konsepsiyasi ishlab chiqildi⁸. Shu yilning oxiriga qadar ushbu muassasalarda 503 nafar vrach, 38 nafar o'rta tibbiyot xodimlari o'z malakalarini oshirdi⁹.

O'zbekistonda tez tibbiy yordam sohasini yo'lga qo'yishda xorijiy hamkorlik aloqalari muhim ahamiyatga ega bo'ldi. O'zbekiston RSHTYOIM yangi a'zo sifatida Amerikaning xalqaro tibbiyot uyushmasiga qabul qilindi. Shu bilan birga Rossiyadagi Sklifosovskiy nomidagi Shoshilinch va tez tibbiy yordam ITI bilan o'zaro hamkorlik qilish bo'yicha shartnoma tuzildi. 2000 yilda 28 nafar vrach MDH va xorijiy davlatlar klinikalarida malaka oshirdi. 12 nafar mutaxassis Rossiya, Germaniya, Isroil va AQSH kabi davlatlardagi tez yordam xizmatining tashkil etilish tajribasi bilan tanishdi¹⁰.

RSHTYOIM va uning hududiy filiallarini tibbiy anjomlar bilan ta'minlashda xorijiy firmalar xizmatidan ham foydalanildi. Samarqand shahri tez tibbiy yordam bo'limda 87 ming AQSH dollariga sun'iy buyrak apparati, 1 mln. 700 ming AQSH dollariga esa yumshoq va qattiq jihozlar olib kelib o'rnatildi. Respublikaning qator viloyat filiallari Germaniyaning 23,4 mln. nemis markasi hajmida tibbiy asbob - uskunalar bilan ta'minlandi¹¹. Bu kabi tadbirlar soha moddiy texnik bazasini mustahkamlashga xizmat qildi.

2016 yilga kelib Respublika shoshilinch tibbiy yordam markazi va uning viloyatlardagi filiallari, tuman va shahar tibbiyot birlashmalari qoshidagi bo'limlari, mamlakatning barcha hududlaridagi tez tibbiy yordam xizmati stansiyalari va sanitar

⁶ Ўз ИТТХ МА М-372-Фонд, 1-рўйхат, 485-йиғма жилд, 105-варак.

⁷“Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш. 2002 й, 12-февраль.

⁸Ўз ИТТХ МА М-372-Фонд, 1-рўйхат, 527-йиғма жилд, 109-варак.

⁹ЎзИТТХ МДА, М-372-Фонд, 1-рўйхат, 485-йиғма жилд, 107-варак.

¹⁰Ўз ИТТХМА, М-372-Фонд, 1-рўйхат, 527-йиғма жилд, 110-варак.

¹¹Ўз ИТТХ МА, М-372-Фонд, 1-рўйхат, 527-йиғма жилд, 110-варак.



aviatsiya xizmatini o'z ichiga oldi. Soha rivoji yo'lida amalga oshirilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar natijasida shoshilinch tibbiy yordam tizimida yiliga 600 ming nafardan ziyod bemorga statsionar va 1 million nafardan ortiq bemorga ambulator yordam hamda 7 milliondan ziyod chaqiriqlar bo'yicha xizmat ko'rsatildi¹².

2017 yilga qadar sohada zudlik bilan hal etishni talab qiladigan bir qator muammo va masalalar ham to'planib bordi. Jumladan, shoshilinch tibbiyot sohasidagi meyoriy-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash, ilmiy ishlanmalarni rivojlantirish, malakali kadrlar, dori vositalari, tibbiy uskunalar, ixtisoslashtirilgan avtotransport va aloqa vositalari bilan ta'minlanish darajasini yaxshilash dolzarb masala bo'lib qoldi. Bu esa tez tibbiy yordam faoliyatini boshqarish va muvofiqlashtirishning amaldagi tizimini qayta ko'rib chiqish, shoshilinch tibbiy yordam sifatini tubdan yaxshilashga doir tezkor choralar ko'rish zaruratini keltirib chiqardi.

Xullas, Sog'liqni saqlash sohasida amalga oshirilgan islohotlarning uzviy qismi hisoblangan shoshilinch tez tibbiy yordam xizmati mustaqillik yillarida ba'zi muammolarning mavjudligiga qaramasdan, yangi tizimda o'z faoliyatini boshladi. Xorijdan keltirilgan eng zamonaviy tibbiy asbob uskunalarni boshqara oladigan, tibbiy kadrlar tarkibi yaratildi va o'z faoliyatini olib bordi. Natijada ba'zi obyektiv xato va kamchiliklarga qaramasdan, tez tibbiy yordam xizmati zamonaviy qiyofaga kirib, aholining unga bo'lgan ishonchining ortishiga olib keldi. Hozirgi kunga kelib Davlatimiz rahbari tomonidan Shoshilinch tez tibbiy yordam xizmati rivojini yangi bosqichga ko'tarish siyosati olib borildi. Ta'kidlash kerakki, pandemiya barchamizga tibbiyotning birlamchi bo'g'ini – “tez yordam xizmati, sanitariya-epidemiologiya tizimini tubdan isloh qilish muhim hayotiy zarurat ekanini yana bir bor ko'rsatdi”.¹³

¹² Lex.uz. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Шошилиinch tibbiy ёрдамни янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Фармони.

¹³ Lex.uz. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий мажлисга мурожаатномаси



Фойдаланилган Адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг тиббиёт соҳасидаги долзарб масалалар муҳокамасига бағишланган йиғилишдаги нутқи / Халқ сўзи.2017 йил 13 декабрь.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги 4947-сонли Фармонининг 1-илоvasида келтирилган “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича *Ҳаракатлар стратегияси*”. [http: // strategy.regulation.gov.uz](http://strategy.regulation.gov.uz)
3. Ўз ИТТХ МА М-372-Фонд, 1-рўйхат (давоми), 407-йиғма жилд Т,1996
4. Ўзбекистон Республикаси давлат статистика қўмитаси ҳисоботи (1995 йил)
5. Миразимов Д.Б., Ўзбекистон соғлиқни сақлаш тизимини ислоҳ қилиш: асосий йўналишлар ва босқичлар/ *Sog’liqni saqlashni tashkil etish va boshqarish*. 2010 й., 3-4 сон .–Б.21.
6. Шошилинч тиббий ёрдам истиқболи/ *Sihat – salomatlik*. 1999 й. 3 – сон. Б.3.
7. Lex.uz. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Шошилинч тиббий ёрдамни янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Фармони.